


## NAMANGAN VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- iyun)


Viloyat bo`yicha 2019 yilning yanvar- iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4700,8 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,0 foizga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 505,6 mlrd. so`mni (o`shish sur`ati 53,4 foiz), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 4195,1 mlrd.so`mni (o`shish sur`ati 2,2 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 535,4 mlrd.so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,7 foizga kamaygan) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, va To'raqo'rg'on tumanlarida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (foizda)




### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (foizda)

2018 yil  
yanvar- iyun



2019 yil  
yanvar- iyun



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik

### Shahar va tumanlar kesmida chakana savdo tovar aylanmasi


	Mln.so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>4700778,4</b>	<b>106,0</b>
Namangan.sh	1880174,9	103,4
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	104281,9	101,4
Kosonsoy	265496,3	102,2
Namangan	220834,4	102,1
Norin	315267,3	100,8
Pop	295813,4	105,2
To`raqo`rg`on	318363,8	107,2
Uychi	171266,9	102,0
Uchqo`rg`on	226923,7	124,7
Chortoq	247454,4	120,2
Chust	392931,9	119,8
Yangiqo`rg`on	261969,5	100,1

Chakana savdo tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarda yuqori o`shish sur`ati kuzatildi: Uchqo`rg`on – 124,7%, Chortoq – 120,2% va Chust – 119,8 % tumanlarda ko`paydi.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	<b>Yirik korxonalar (mln.so`m)</b>	<b>O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>	<b>Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)</b>	<b>O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>
<b>Namangan viloyati</b>	<b>505648,0</b>	<b>154,3</b>	<b>4195130,4</b>	<b>102,2</b>
Namangan.sh	186239,9	112,4	1693935,0	102,5
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	333,0	44,3	103948,9	101,8
Kosonsoy	724,7	92,9	264771,6	102,2
Namangan	2177,2	420,0	218657,2	101,3
Norin	9423,5	94,8	305843,8	101,0
Pop	36125,7	139,2	259687,7	101,7
To'raqo'rg'on	32172,9	218,9	286190,9	101,4
Uychi	617,6	151,6	170649,2	101,9
Uchqo'rg'on	55590,8	384,9	171332,9	102,3
Chortoq	40472,5	1139,8	206981,9	102,3
Chust	138450,0	176,4	254481,9	102,0
Yangiqo'rg'on	3320,1	26,5	258649,3	103,8

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (foizda)**



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar- iyun oylarida o'tgan yilga nisbatan Viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Namangan shahri (3056,5 ming.so`m), Norin (1960,1 ming.so`m) va Chust (1506,9 ming. so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Uychi (821,0 ming.so`m), Mingbuloq (843,2 ming.so`m), Yangiqo'rg'on (1226,0 ming.so`m) va Namangan (1258,5 ming.so`m) tumanlarida qayd etilgan.

2019 yil yanvar- iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1700,3 ming so`mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 foizga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1700,3</b>	<b>103,9</b>
Namangan.sh	3056,5	101,3
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	843,2	99,3
Kosonsoy	1296,2	100,0
Namangan	1258,5	99,8
Norin	1960,1	99,0
Pop	1370,4	103,3
To`raqo`rg`on	1436,5	105,0
Uychi	821,0	99,9
Uchqo`rg`on	1343,7	122,4
Chortoq	1266,9	117,9
Chust	1506,9	117,6
Yangiqo`rg`on	1226,0	98,2

2019 yilning yanvar- iyun oylarida o`tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,5 foizni tashkil etib, 70,0 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning yanvar oylariga nisbatan 15,5 foizga o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,9 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

## NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- iyun)


Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1046,1 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 5,9 foizga ko'paydi

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar- iyun oylari yakunlariga ko'ra 535,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 % ga ko'paydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 51,2 % ni tashkil qilmoqda.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1046074,8</b>	<b>105,9</b>	<b>510628,9</b>	<b>110,9</b>	<b>535445,9</b>	<b>101,6</b>
Namangan.sh	520319,2	93,7	265478,7	86,8	254840,5	102,0
tumanlar:						
Mingbuloq	4488,5	94,4	135,8	29,9	4352,7	101,1
Kosonsoy	32994,1	100,3	116,7	26,2	32877,5	101,2
Namangan	26353,8	100,7	343,7	71,6	26010,1	101,2
Norin	49118,4	100,9	4,0	3,0	49114,4	101,1
Pop	25566,4	100,7	244,2	64,7	25322,1	101,2
To'raqo'rg'on	244077,0	173,2	217446,4	189,7	26630,6	101,4
Uychi	12421,3	99,5	30,5	12,3	12390,8	101,2
Uchqo'rg'on	13593,7	92,0	145,1	9,7	13448,5	101,2
Chortoq	65615,3	116,6	8507,4		57107,9	101,4
Chust	29095,5	63,2	18176,4	51,5	10919,1	101,4
Yangiqo'rg'on	22431,7	98,0	0,0	0,0	22431,7	101,3

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari (foizda)**



Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o'sish sur'ati kuzatildi: To'raqo'rg'on – 173,2% va Chortoq – 116,6% tumanlarda ko'paydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-84-89